

Ikki urug‘pallali o‘simliklar (**MAGNOLIYASIMONLAR**) sinfiga 340 ta oilaga mansub 175 000 dan ortiqroq o‘simlik turlari kiradi.

OILA	RA’NODOSHLAR	KARAMDOSHLAR	SHO’RADOSHLAR
G.F	Gk 5 Gt 5 Ch ∞ U ∞	Gk 4 Gt 4 Ch 4+2 U (2)	Og 0,5 Ch 2-5 U (2-5)
Turi	3000	3000	1500
H.SH	Daraxt, buta, ko‘p yillik o’t	Bir yillik, ikki yillik, ko‘p yillik	Barcha hayotiy shakl bor
Barg	Yonbargchali, oddiy va murakkab, uch bargchali yoki toq patsimon murakkab bargli	Oddiy, yonbargsiz, butun yoki qirqilgan barglar	Oddiy, yonbargsiz, ketma-ket va qarama-qarshi joylashgan. Bargi kichrayib yo‘qolib ketgan
Guli	Ikki jinsli, to‘g‘ri, hasharotlar yordamida changlanadi. To‘pguli: shingil, qalqon, soyabon	Ikki jinsli, to‘gri. To‘pguli: oddiy shingil	Ikki va bir jinsli, to‘g‘ri va qiyshiq, gullari mayda, yashil. To‘pguli: boshoqsimon va shingilsimon
Meva	Bir danakli va ko‘p danakli ho‘l meva	Qo‘zoq-bo‘yi endian 3 marta katta Qo‘zoqcha-bo‘yi va eni teng yoki 2 marta uzun	Yong‘oqcha meva
Vakil	Tpobulg‘i, olcha, namatak, olma, olxo‘ri, bodom, nok, shaftoli, kamxastak, gilos, qulupnay, maymunjon, malina, olga sorbariyasi	Karam, rediska, turp, sholg‘om, qurttana, o’sma	Lavlagi, ismaloq, saksovul, cherkez, izen, teresken, sho’rak, donasho‘r, baliqko‘z, olabo‘ta, quyonjun
Q.K	Olga sorbariyasi, O’rta Osiyo noki	8 ta tur	8 ta tur

#### ODDIY NAMATAK (RA’NO)



- Bo‘yi 2-3 m. Sershox ko‘p tikanli buta.
- O‘zbekistonda 13 ta turi bor.
- Barglari murakkab toq patsimon 5-9 yaproqli
- Gullari yakka to‘pgulda, 8-9 sm, och pushti.
- Iyun-iyul oylarida gullaydi.
- Mevasi to‘q qizil, etdor, tuxumsimon 2-3 sm
- limon kislota va oshlovchi modda C vita bor.
- Avitaminozga qarshi ishlatiladi.


**ATIRGUL**- Yer yuzida 10000 ta, O‘zbekistonda 340 ta navi bor.

**OLMA**- O‘zbekistonda 5 ta turi bor

**NOK** - O‘zbekistonda 7 ta turi bor. Mevasining etida tosh hujayrasi borligi bilan olmadan farq qiladi

**TUZUVCHI: DAVRONOV SHAHRIYOR**

#### ODDIY JAG‘-JAG‘ (ACHAMBITI)



- Bo‘yi 10-30 sm. Bitta turi bor
- Hayotiy shakli -bir yillik o’t
- Mevasi - qo‘zoqcha
- Mart oyidan boshlab maygacha gullaydi
- **C** va **K** vitamin, olma, limon kislotalari bor
- Yer ustki qismi **qon ketishini to‘xtatishda** foydalilanildi

#### ODDIY LAVLAGI

H.Sh- ikki yillik o’t  
May oyida gullaydi, gullari mayda.  
(mayda-mayda)  
Changchisi 5ta. Urug‘chisi 3 ta  
Sentabrda yong‘oqcha meva hosil qiladi.



#### ISMALOQ

- **Rezavor**- bir yillik, ziravor qatorida ekiladi
- **Turkiston**- bir yillik ikki uyli begona o’t.


#### SAKSOVUL

- hayotiy shakli -daraxt
- mart oxiri aprel boshida gullaydi
- Sentabrning ikkinchi yarmida mevasi pishadi
- 5 ta gulqo‘rg‘on bargchalaridan qanotcha o’sib chiqadi, shamolda tarqaladi.
- bargi mayda tangachasimon
- bir yillik novdasi va mevasi chorva mollariga oziq sifatida qo’llaniladi

#### CHERKEZ

- Bargi va mevasi-qon bosimini pasaytirishda qo’llaniladi.

OILA	GULXAYRIDOSHLAR	BURCHOQDOSHLAR	ITUZUMDOSHLAR
G.F	Gk (3)+(5) Gt 5 Ch (∞) U (∞)	Gk (5) Gt 1+2+(2) Ch (9)+1 U 1	Gk (5) Gt (5) Ch 5 U 1
Turi	70 turkum 900 tur	12000 tur	3000 tur
H.SH	O'tlar, butalar, daraxtlar	Barcha hayotiy shakllar	Bir yillik, ko'p yillik, yarim buta, buta
Barg	Oddiy, yonbargli, panjasimon	Ko'pincha murakkab, ba'zan oddiy, yonbargli	Oddiy, butun yoki bo'lingan
Guli	To'g'ri, ikki jinsli. To'pguli: yakka Xususiy xususiyati: <b>GULKOSACHABARGLARI IKKI QAVAT, CHANGCHILARI URUG'CHINI O'RAB TURADI</b>	Qiyshiq, ikki jinsli. To'pguli: shingil va boshcha Xususiy xususiyati: <b>GULTOJBARGLARI KAPALAK SHAKLDA</b>	Biroz qiyshiq, va bazan to'g'ri, ikki jinsli. To'pguli: gajak. Xususiy xususiyati: <b>CHANGCHILARI GULTOJBARGNING QO'SHILISHIDAN HOSIL BO'LGAN NAYGA O'RNASHGAN</b>
Meva	Ko'sak yoki yig'ma meva	Dukkak meva	Ko'sak yoki rezavor meva
Vakil	Dorivor gulxayri, yerbag'ir tugmachagul, bo'ritaroq, kanop, g'o'za, baobab daraxti	<b>YOVVOYOI:</b> Sebarga, shirinmiya, isirg'ao't, astragal, oqquray, qashqarbeda, afsonak, (beda), burchoq <b>MADANIY:</b> Soya, yasmiq, mosh, loviya, no'xot, (beda)	Qora ituzum, Kartoshka, baqilajon, garmdori, bangidevona, mingdevona, tamakki, pomidor, oloy hiyoli
Q.K	----	60 ta tur kiritilgan Astrgal -37 ta; Oksitrops -13 ta Tangao't - 8 ta	Oloy Hiyoli



### YERBAG'IR TUGMACHAGUL

- Bargi uzun bandli 5-7 ga bo'lingan,
- Poyasi sershox, bo'yi 10-40 sm.
- Hayotiy shakli bir yillik o't.
- Gullari barg qo'ltig'ida joylashadi.
- Gultojbarglari gulkosachabarglariga nisbatan 2 marta uzun [ Gt : Gk=2 ]
- Apreldan sentabrgacha gullaydi
- Qurutilgan bargi, guli, urug'i ichni yumshatuvchi dori sifatida ishlatalidi

### Dorivor gulxayri:

- bo'yi 70-150 sm, ko'p yillik o't
- ildizi yo'talga qarshi ishlatalidi



### O'TLOQ SEBARGASI

- Bo'yi 25-50 sm
- Ko'p yillik o't
- Guli kallakcha, 2-3,5 sm
- Bargi 3 bargchali
- Poyasi ko'tarilib o'suvchi

### Yeryong'oq

- Bir yillik, madaniy o't
- Vatani Braziliya (Janubiy Amerika)
- Barglari juft patsimon murakkab
- Gullari to'q sariq, mevasi cho'ziq

### (MANZARALI) O'simliklarning ikkinchi nomi

- Tuxmak - Yapon saforasi
- Gledichiya - tikan daraxt
- Oq akatsiya - Albitsiya



### QORA ITUZUM

- Ituzum turkumiga mansub bir yillik o't
- Bo'yi 20-25 sm
- Bargi tuxumsimon, poyasi sershox
- Gullari oqish, Shoxlar uchidagi gajak to'pgulida 3 tadan 10 tagacha gul joylashgan
- Iyun oyidan to tupini sovuq urgunicha gullayveradi
- Mevasi sharsimon, rezavor, avgust oyining oxirida qorayib pishadi, "C" vitaminga boy.

### BANGIDEVONA(5-sinf asosida):

- Bargi oddiy guli oq varonkasimon
- Mevasi tikanli ko'sak meva, urug'i qoramtilr va zaharli, urug'i asab tizimiga salbiy tasir ko'rsatadi
- Yozda o'zidan o'tkir hid ajratadi
- Hididan zaharlanish belgilari quydagilar : Og'iz qurishi, yurak urishining tezlashishi, qo'l va oyoq harakatning qiyinlashishi, mo'ljal olish qobiliyatining susayishi, yurak urishi tezlashishi, ayrim hollarda birdan kulib, birdan yig'lash mumkin.

G'o'zalar	Ko'sagi	Guli	Tolasi	Vatani
Jaydari	Mayda	----	Mallarang	Afrika
Meksika	4-5 chanoqli	Och sariq	Oq ba'zan qo'ng'ir	M. Amerika
Misr	3-4 chanoqli	Sap-sariq limon	Och sariq	J. Amerika



Sertifikat A+ masala yechimlarini  
kursiga a'zo bo'lish uchun  
@bioprogress\_admin ga  
murojaat qiling.

Masala kursiga a'zo bo'lish  
uchun @bioprogress\_admin  
ga murojaat qiling.

BIOLOGIYA II DAVRONOV SHAHRIYOR

BIOPROGRESS I AZIZBEK HAMIDOV

You Tube SHAHRIYOR DAVRONOV

PROMEDIC

TUZUVCHI: DAVRONOV SHAHRIYOR